Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 3, Issue 1, 2024 Chemistry of Goods

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING TOVAR KODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ulug‘bek Rustamovich Hamroyev
Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti, dotsent, t.f.f.d. (PhD)
E-mail: uzbekiston@inbox.ru
https://orcid.org/0000-0002-2324-7888

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss1.2024.251

Kalit so‘zlar:
TIF TN, ixtisoslashtirilgan transport vositalari, transport vositalari, LT1130 avtokrani, texnik tavsifi, tovar pozitsiyasi

Annotatsiya.
Ushbu maqolada Bojxona amaliyotida ixtisoslashgan transport vositalarini import yoki eksport qiluvchilarda gidravlika “avtokran” avtotransport vositalariga nisbatan tasniflanishida 2 ta tovar pozitsiyasida tasniflanishida havola moyilligi va munozarali holatlari yuzaga kelishi kuzatiladi. Model LT1130 avtokranining texnik tavsifini 8705 va 8426 tovar pozitsiyalariga nisbatan tasniflanishi to‘g‘risida nazariy asoslari keltirilgan. Shuningdek, LT1130 model avtokrani talqin etishning asosiy qoidasi (OPI)ning 1 va 2- qoidalariga muvofiq 8705 tovar pozitsiyasi, ya’ni 8705 10 subpozitsiyasida tasniflanishi to‘g‘risida ma’lumotlar bayon qilingan.

Havola uchun:
Hamroyev, U. R. (2024). AVTOTRANSPORT VOSITALARINING TOVAR KODLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 3(1), 16–38. https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss1.2024.251

Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi muayyan me’zonlar bo‘yicha tovarlarni raqamli kodlar bilan belgilash imkonini beradi. Mazkur kodlar esa tovarlar bilan bajarilayotgan jarayonlar bo‘yicha ma’lumotlarni tezkorlikda to‘plash va ularning batafsil tahlilini o‘tkazishni, tahlil natijalari asosida ma’lum turdagi tovarlar yuzasidan tarifli va notarifli aniq choralarni qo‘llash bo‘yicha keng imkoniyatlarni yaratadi [1].

Ixtisoslashgan transport vositalari (ITV) harakat tarkibi - bu transport vositalari (avtomobil, yo‘l poezdi, tirkama yoki yarim tirkama), ularning dizayni bo‘yicha ma’lum turdagi (yuk guruhlari) yuklarni tashishga, maxsus yuk ko‘taruvchi va tushirish qurilmalariga ega, hamda yuklash (tushirish) imkonini ta’minlab beradi [2].


ITV va avtopoezdlarda tashiladigan barcha yuklar besh guruhga birlashtirilgan. Shu bilan birga, harakatlanuvchi tarkibning turi bevosita yuk parametrlariga nisbatan e’tibor qaratiladi, ya’ni: fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari, vazni, hajmi, o‘lchamlari, yuklash, tushirish, tashish va saqlash usullari, sanitariya sharoitlari hisobga olingan.

Bizga ma’lumki, bojxona amaliyotida transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida tasniflashda uchraydigan bir qator muammolarni keltirib o‘tsak:

- tasniflanayotgan transport vositasining boshqa tovar guruhlariga nisbatan tasniflanishi va mos tushishi;
- odamlar ehtiyojiga qarab ishlab chiqaruvchilar tomonidan yangi vazifalarni bajaruvchi transport vositalarini ishlab chiqarayotganligi;
- transport vositasining texnik qismlari bo‘laklarga bo‘lgan holda bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini aylanib o‘tishi;
- bir vaqtni o‘zida ko‘p vazifalarni bajaruvchi transport vositalarini tasniflanishi oldin tasniflash usullari ishlab chiqilmaganligi;
- bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarida transport vositalarini TIF TN muvofiq tasniflashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yetarlicha tadbiq qilinmaganligi.

Tovarlarning tasnifi bu - o‘xshash xususiyatlarga ko‘ra ularni turli darajadagi sinflarga ajratishdir. Tasniflash natijasida tasniflash tizimi, ya’ni klassifikator hosil bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, tasniflagich - bu ma’lum bir tasnif kodi berilgan har bir mahsulot uchun joy topishga imkon beradigan ob’ektlarning guruhlangan ro‘yxati [3].

Maxsus avtotransport vositalari (MAT) orqali tashiladigan barcha yuk (tovar)lar 5 guruhga bo‘lingan. (1-rasm). Ularning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini, massasini, hajmini, o‘lchamlarini, yuklash va tushirish usullarini, saqlash usullarini va sanitariya talablarini hisobga olgan holda [4].



1-rasm. Maxsus avtotransport vositalarining sinflanishi.

Bojxona amaliyotida import yoki eksport qiluvchilarda gidravlika “avtokran” avtotransport vositalarini tasniflanishida 2 ta tovar pozitsiyasida tasniflanishida havola moyilligi borligi kuzatiladi. Masalan, LT1130 model avtokrani **2-rasm.** [5].

Mahsulot tavsifiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “avtokran”ning eng yuqori harakat tezligi 71 km/soat bo‘lib, quyidagi texnik xususiyatlari ega (1-jadval):



2-rasm. LT1130 model avtokrani ko‘rinishi.

1-jadval

Texnik tavsif		QZC5690JQZL LT 1130
Kranning og‘irligi	Transport vositasinining umumiy qancha yuk ko‘tara olishi (GVW)	68,500 kg
O‘q moslamalar	Rul o‘qlari	1, 2 va 3
	Rul boshqaruvi o‘qi	4
	Boshqaruv o‘qlari	5 va 6
O‘q yuklanmasi	O‘qlar 1 va 2	25,600 kg
	O‘qlar 2, 3, 4, 5 va 6	42,900 kg
Umumiy o‘lchamlari	(uzunlik, kenglik, balandlik)	15.94 m; 3.05 m; 3.95 m
Ko‘tarish qobiliyati	Asosiy ilgakning maksimal yuk ko‘tarishi	130 t
	Yordamchi ilgakning maksimal yuk ko‘tarishi	6 t
	Yo‘nalishning maksimal holati	3.822 kN.m
Jib	Burish tezligi	1.6 rpm
Autriger boshqaruv vositalari	Ishlatilish harorati	-20 °C – +40 °C
Dvigatel va transmissiya		
Shassi dvigateli	Balonlar soni	6
	Avtomobil aspiratsiyasi	Turbo zaryadlangan
	Nominal quvvati	391 kW @ 1800 rpm
	Eng ko‘p burilishi	2237 Nm @ 1000 – 1600 rpm
	Yoqilg‘ining sarfi 100 km uchun	80 l
	Yoqilg‘i turi	Dizel
	Yoqilg‘i sig‘imi	420 l
	Eng past o‘t olish harorati	-12 °C
Shassi va komponentlar	Aks haydovchi tizimi	12 x 6
	Beshinchi chiqish elementi 360 °S	Beshinchi autrigger
	Minimal burish radiusi	14,5 m
	Maksimal daraja	35%
	Maksimal harakat tezligi	71 km/soat
Haydovchi kabinasi		Moslashuvchan o‘rindiq
		Moslashuvchan rul - haydovchilarga rulning balandligi va masofasini o‘z xohishiga ko‘ra sozlash imkonini beradi.
		Konditsioner va isitgich
Operator kabinasi		Moslashuvchan o‘rindiq

	Yuk momenti indikatori - kran operatorlari uchun muhim xavfsizlik moslamasi hisoblanadi, chunki u baxtsiz hodisalar va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi. Kranning xavfsiz yuk chegaralarida ishlashini ta'minlash orqali u ortiqcha yuklanish va ag'darish xavfini kamaytiradi, jarohatlar yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini oladi.
	Konditsioner va isitgich

Tasniflash

Ushbu "avtokran" yagona mexanik tuzilma va alohida kabinalarning mavjudligi sabab, 8426 tovar pozitsiyasida tasniflanishi ehtimolligi kuzatiladi. Shuning uchun **Model LT1130** avtokranini 8705 va 8426 tovar pozitsiyalaridan qaysi birida tasniflashga ikkilanishlar kuzatiladi.

8426 tovar pozitsiyasi haqida tushuntirish:

8426 tovar pozitsiyasida - "Kema derrik-kranlari; yuk ko'tarish kranlari, shu jumladan kabel-kranlar; ko'chma yuk ko'tarish fermalari, yuk ko'tarish krani bilan jixozlangan portalli yuklagichlar va aravachalar" bilan tasniflangan [1].

Boshqa tomondan, 8426 tovar pozitsiyasida bir yoki bir nechta harakatlantiruvchi yoki boshqaruv elementlari bilan jihozlangan o'ziyurar mashinalar tasniflanadi. Harakatlantiruvchi yoki boshqaruv elementlari g'ildirakli shassiga o'rnatilgan ko'tarish yoki ishlov berish mashinasining kabinasi ustida joylashgan. O'z kuchi ostida butun yo'lda haydash mumkinmi yoki yo'qmi buning farqi yo'q.

8426 tovar pozitsiyasining kranlari odatda yuk ostida harakat qilmaydi yoki harakatlanadigan bo'lsa, harakat cheklangan va aksincha yukni ko'tarish funksiyasiga qo'shimcha (yordamchi) hisoblanadi. Ba'zi ko'tarish yoki yuklash va tushirish uskunalari (masalan, oddiy kranlar, yengil ko'tarish kranlari)ko'pincha avtomobil shassisi yoki yuk mashinasiga o'rnatiladi, chunki u kamida quyidagi mexanik xususiyatlarni o'z ichiga oladi: harakatga keltiruvchi dvigatel, vites qutisi va vites o'zgartirish boshqaruvlari, shuningdek, boshqaruv va tormozlash vositalari. Bunday birliklar 8705 tovar pozitsiyasida maxsus transport vositalari sifatida tasniflanadi, ko'tarish va tashish mashinasi shunchaki transport vositasiga o'rnatiladimi yoki u bilan bitta mexanik butunlikni hosil qiladimi, bundan tashqari ular asosan transport maqsadlari uchun mo'ljallangan transport vositalari bo'lsa, 8704 tovar pozitsiyasiga kiradi [6].

Yuk mashinasini va kranni harakatlantiruvchi boshqaruv elementlari bir-biridan alohida bo'lib, alohida kabinalarda joylashganligi sababli, ushbu transport vositasi 8426 tovar pozitsiyasida tavsiflangan o'ziyurar kranlar bilan mos kelmaydi.

Bundan tashqari, ushbu avtomobil asosan yuk mashinasi shassisini, yopiq haydovchi kabinasi bilan uning ustiga burama kran o'rnatilganligini hisobga olsak, kran shunchaki yuk mashinasiga o'rnatiladi.

Shuni tushunish kerakki, kran yuk mashinasining shassisi va burilish platformasi o'rtasida o'rnatilgan bo'lsada, kran va yuk mashinasi shassisi bilan ajralmas mexanik birlikni hosil qilmaydi. Shuning uchun ham, ushbu avtotransport vositasi 8426 tovar pozitsiyasida tavsiflanmaydi. Shuningdek, 8426 tovar pozitsiyasi ushbu holatda qo'llanilmaydi.

8705 tovar pozitsiyasi haqida tushuntirish:

8705 tovar pozitsiyasi - Maxsus avtotransport vositalari (masalan, avariya yuk mashinalari, kranlar, o't o'chirish mashinalari, beton aralashtirgichlar, yo'l tozalash vositalari, suv yuvish vositalari, avtokorxonalar, rentgen qurilmalariga ega avtomobillar), yo'lovchilar yoki yuklarni tashishda foydalaniladiganlardan tashqari.

8705 tovar pozitsiyasi maxsus avtotransport vositalarining turiga qarab uning bajarish funksiyasi, foydalanish davriga qarab, Og‘irlik yuk ko‘tarish parametri bo‘yicha quyidagicha tasniflangan. (2-jadval).

2-jadval.

№	**8705-Maxsus avtotransport vositalari (masalan, avariya yuk mashinalari, kranlar, o‘t o‘chirish mashinalari, beton aralashtirgichlar, yo‘l tozalash vositalari, suv yuvish vositalari, avtokorxonalar, rentgen qurilmalariga ega avtomobillar), yo‘lovchilar yoki yuklarni tashishda foydalaniladiganlardan tashqari**
	I. Bajarish funksiyasiga qarab
1	Avtokranlar
2	Avtoburg‘ilovchilar
3	yong‘inga qarshi transport vositalari
4	beton qorishga mo‘ljallangan avtomobillar
5	beton eritmasini perekachka qilishga mo‘ljallangan avtomobillar
6	avariyaviy yuk tashish avtomobillari
7	atrofdagi havo harorati –40 ^{0}S va undan past bo‘lganda ishlashga mo‘ljallangan, 90 tonna va undan ortiq gidravlik ko‘tarish qobiliyatiga ega, ikki yoki undan ortiqroq yetaklovchi mostga ega bo‘lganlar
	II. Foydalanish davriga qarab
	Yangi
	muqaddam foydalanishda bo‘lgan (ishlatilgan)
	III. Og‘irlik yuk ko‘tarish parametri bo‘yicha
	atrofdagi havo harorati –40 ^{0}S va undan past bo‘lganda ishlashga mo‘ljallangan, 90 tonna va undan ortiq gidravlik ko‘tarish qobiliyatiga ega

XVII-8705-1 tovar pozitsiyasidagi ma’lumotlarda; 8705 tovar pozitsiyasida tasniflanadigan transport vositalariga “yuklarni tashish uchun mo‘ljallanmagan lekin, kabina va aylanadigan kranda o‘rnatiladigan avtotransport shassisidan iborat yuk mashinalari” misol sifatida keltirilgan.

8705	**Махсус автотранспорт воситалари (масалан, авария юк машиналари, кранлар, ўт ўчириш машиналари, бетон аралаштиргичлар, йўл тозалаш воситалари, сув ювиш воситалари, автокорхоналар, рентген қурилмаларига эга автомобиллар), йўловчилар ёки юкларни ташишда фойдаланиладиганлардан ташқари**	
8705 10 00	– автокранлар	
8705 10 001 0	– – атрофдаги ҳаво ҳарорати –40 С ва ундан паст бўлганда ишлашга мўлжалланган, 90 тонна ва ундан ортиқ гидравлик кўтариш қобилиятига эга, икки ёки ундан ортиқроқ етакловчи мостга эга бўлганлар	дона
8705 10 009	– – бошқалар:	
8705 10 009 1	– – – янги:	дона
8705 10 009 5	– – – муқаддам фойдаланишда бўлган (ишлатилган)	дона

8705	**Моторные транспортные средства специального назначения (например, автомобили грузовые аварийные, автокраны, пожарные транспортные средства, автобетономешалки, автомобили для уборки дорог, поливомоечные автомобили, автомастерские, автомобили с рентгеновскими установками), кроме используемых для перевозки пассажиров или грузов:**	
8705 10 00	– автокраны:	
8705 10 001 0	– – гидравлические грузоподъемностью 90 т и более с двумя и более ведущими мостами, предназначенные для работы при температуре окружающего воздуха –40 °C и ниже	шт
8705 10 009	– – прочие:	
8705 10 009 1	– – – новые	шт
8705 10 009 5	– – – бывшие в эксплуатации	шт

XVII-8705-3 dagi ma'lumotlarda: "Ta'kidlash kerakki, yuk ko'tarish yoki tashish mashinalari, yerni tekislash, qazish yoki burg'ulash mashinalaridan iborat avtomobillar ushbu tovar pozitsiyasida tasniflanadi, shuningdek avtotransport shassisi yoki yuk mashinasining o'ziga xos mexanik xususiyatlari mavjud va bular quyidagilar: dvigatel, vites qutisi va vitesni almashtirish uchun boshqaruv elementlari, boshqarish va tormozlashdir. Yuqorida aytilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, haydovchi kabinasi yuk mashinasi shassisida joylashgan va uning ustiga doimiy aylanib turgan kran o'rnatilgan. Kranning eng yuqori harakat tezligi 71 km/soat. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar "Explanatory Note to heading 8705"da qayd etilgan. Shuningdek, jahon bojxona tashkilotida ilgari klassifikatsiyasi bo'yicha tavsiyalar taqdim etgan tavsiyalarda quyidagicha: 1988 yil 20 may va 1996 yil 25 oktabr LIEBHERR LG 1350 yuk krani va P&H Century gidravlikka yuk krani (JBT 88. N.283 BA va WCO 96N-157 referendum ostida) 8705 tovar pozitsiyasida tasniflangan. Yuqorida keltirilayotgan gidravlika "avtokran", **LT1130 modeli avtokran** ham 8705 tovar pozitsiyasida tasniflandi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri bojxona ishining tarkibiy qismi bo'lgan TIF TNni amaliyotga kiritishi hisoblanadi. Tovarlarni bojxona qiymatini aniqlash va bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblash va undirish tovarlarning TIF TNga ko'ra to'g'ri tasniflanganligiga bog'liq [6].

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni e'tiborga olgan holda, yuqoridagi LT1130 model avtokrani **talqin etishning asosiy qoidasi (OPI)ning 1 va 2- qoidalariga** muvofiq **8705** tovar pozitsiyasi, ya'ni **8705 10** subpozitsiyasida tasniflanadi [8].

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi (2022-yil tahriri). [Elektron resusr]. - URL: Murojaat : https://lex.uz/uz/docs/-6330249 (murojaat qilgan sana: 20.02.2024).
2. Автомобили: Специализир. подвижной состав: Учеб. пособие/ М.С.Высоцкий, А.И.Гришкевич, Л.Х.Гилелес и др.; Под. ред. М.С.Высоцкого, А.И.Гришкевича. - МН.: Выш. шк., 1989. - 240 с.: ил. ИСБН 5-339-00156-3.
3. Старикова О.Г. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности: учебное пособие для вузов. – СПб: Интермедия, 2012.
4. Уханов А.П., Рыблов М.В., Уханов Д.А. Специальная автомобильная техника. Учебное пособие. РИО ПГСХА, 2016. – С.249.
5. [Elektron resusr]. - URL: Murojaat : https://umcn.ru/?id=5687. (murojaat qilgan sana: 18.02.2024).
6. Karimkulov Q.M., Muratova Sh.N. Tovarlarni xalqaro tasniflash va sertifikatlash. // O'quv qo'llanma. – T.: DBQning Bojxona instituti, 2021. – 197 b.

7. Nomenclature and Classification of Goods [Elektron resurs]. - URL: https://www.wcoomd.org/en/topics/nomenclature.aspx. (murojaat qilgan sana: 15.02.2024).
8. Mirsagatov M.A. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi. // O‘quv qo‘llanma. - T.: Bojxona instituti, 2023. - 185 bet.